



ULULG'BEK HAMDAMNING “BIR PIYOLA SUV” ASARIDA POLIFONIK HIKOYA STILI

Dilorom Sabirova

Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi,

Urganch innovatsion universiteti

o'qituvchisi

E-mail: dilorom.sabirova@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek va jahon adabiyotshunosligida polifonik nutq bayoni masalasining yuzaga kelishi, polifonik bayon uslubining o'ziga xos priyomlari masalasiga doir mulohazalar o'rin olgan. Shuningdek, polifonik hikoya stili bilan boshqa bayon usullarining farqli va umumiy jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: polifoniya, polifonik bayon uslubi, personaj nutqi, parallel qarash, ziddiyatli qarsh, polifonik bayon tiplari.

Аннотация: В данной статье представлены размышления по вопросу полифонического повествования в узбекской и мировой литературе, а также специфические принципы полифонического повествования. Также обсуждаются различия и сходства других методов повествования с полифоническим стилем повествования.

Ключевые слова: полифония, полифонический стиль повествования, речь персонажа, параллельный взгляд, конфликтная оппозиция, полифонические типы повествования.

Summary: In this article, there are reflections on the issue of polyphonic narration in Uzbek and world literature, and the specific principles of polyphonic narration. It also discusses the differences and commonalities of other narrative methods with the polyphonic narrative style.

Key words: polyphony, polyphonic narration style, character's speech, parallel view, conflicting opposition, polyphonic narration types.

Nasriy bayonchilik haqida fikr yuritilar ekan, uning anchayin qadimiy ko'rinishlarga ega ekanligini qayd qilib o'tish lozim. Tarixning muayyyan davrida tegishli shakldagi bayon etish usullari urf bo'lib kelgan. Shu bilan birga kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bir davrlarida turli shakldagi afsonalar, rivoyatlar, ertaklar tarzidagi axloqiy-ma'naviy tarbiya vositalari yetakchi o'rinni egallagan.

Insoniyat tabiat hodisalarini anglash, ulardan vahimaga tushmaslik uchun har turli voqealarni o'ylab topib, ular orqali o'zlari, farzandlarini hayotga tayyorlaganlar. Shular orasida insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin tutuvchi diniy qarashlarimiz ham o'ziga xos yashash tarzimiz, taraqqiyotimizda beqiyos xizmat qilib keluvchi qadriyatlarimizdandir.





Ulug'bek Hamdam ijodiga nazar tashlar ekanmiz, bir qarashda unda qadimiy hikoyachilik unsurlarini, yana bir qarashda afsona-yu rivoyatlar hikoya unsurlarini yana bir qarashda esa diniy qarashlarimiz bilan ohangdosh jihatlarni ko'ramiz. Boshqacha qilib aytganda ana shu uchta bayon uslubining hamohagnligini, umumlashmasini ko'ramiz. Yozuvchining "Bir piyola suv" hikoyasidagi bayon uslubi, hikoya qilish tipiga e'tibor qiliar ekansiz, xuddi yuqoridagi fikrlarimizning isbotini topasiz.

Hikoya quyidagi jumlar bilan boshlanadi: "...Menga vazifa yuklatilgan edi. Biroq nima uchun aynan menga? – bilmayman. Kim va qanday vaziyatda topshiriq berdi? – buni ham negadir eslay olmayman. Yodimda qolgani – nimadir ortilgan, ikkita ot qo'shilgan aravani shom tushgunga qadar manzilga eltishim zarur. Nega endi shomga qadar?..."¹.

Ushbu boshlanmaning birinchi (*Menga vazifa yuklatilgan edi*) gapida juda ko'p ma'lumot yashiringan. Birinchidan, mazkur boshlanma garchi asarning boshlanmasi sifatida berilgan bo'lsa ham, o'tgan asr o'zbek hikoyanavisligida an'ana bo'lgan "epigraf" ning ham vazifasini o'tamoqda. Ikkinchidan, mazkur boshlanma jumlada kishining umri davomida amalga oshirishi lozim bo'lgan, ya'ni taqdiri azalga ham ishora seziladi. Shunki, har bir kishiga uning taqdiri oldindan belgilab qo'yilgan bo'lishi haqidagi aqidaga e'tiborni yo'naltirishga xizmat qiladi.

Abdulla Qahhor hikoyalaridagi epigraflarni esimizga olsak, jumladan: "O'g'ri" dagi "...Otning o'limi – itning bayrami" yoki "Bemor" da "...Osmon yiroq – yer qattiq..." kabi deyarli barcha hikoyalari epigraf bilan boshlangan². Ulug'bek Hamdamning "Bir piyola suv" hikoyasida rasman epigraf qayd qilinmasa-da, hikoyaning birinchi jumlasiga o'ta yuqori vazifa yuklatilganki, bu uning epigrafi bajarishi mumkin bo'lgan ishni ham o'z yelkasiga olgan. Hikoya nomlanishining o'zidayoq, yozuvchi "suv" timsoliga murojaat qilganki, olamning yaratilishidagi "chor unsur" ning biri ham, albatta, suv ekanligiga o'quvchi nigohini yo'naltiradi.

Shu o'rinda bir nasani alohida ta'kidlash lozimki, "zimmasiga vazifa yuklangan", "kengliklarga nazar solib", "haqirib borayotgan kimsa" o'quvchi uchun mavhum, sirli holatda yozuvchi tomonidan mohirona yashirib turiladi. Buning o'ziga xosligi shundaki, bu obraz yoki personaj yozuvchining o'zi bo'lishi ham, shuningdek,

¹ Sharq yulduzi. Jurnal. 2011-yil, 2-son.

² Adabiyotimiz faxri. To'plab nashrga tayyorlovchilar: U.Normatov., B.Karim. –T.: O'zbekiston, 2007. –B. 204.





mazkur hikoyani o'qib turgan o'quvchi ham bo'lib chiqishi mumkin. Chunki, mazkur hikoyada bayon etilayotgan holat har bir kishining ham hayolidan o'tishi, har bir shaxsga ham mos bo'lishi mumkin. Bunday hikoya qilish stili adabiyotshunoslikka oid manbalarda polifonik bayon uslubi deya izohlanib kelinadi³.

Ulug'bek Hamdamning mazkur hikoyasida bunday kuchli ta'sir qiluvchi, bir qarashda oddiydek ko'ringan lekin katta tarbiyaviy ahamiyatga va ifoda etish funksiyasiga ega bo'lgan jummalarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan: "...Ufqlarga tutash kengliklar hislarimni junbishga keltiradi. Ichim to'la hayot, kuchim tanamga sig'may tevarakni titratib hayqiraman – "Uuu-luuu-uuug'!.." Sal o'tmay atrofdan aks-sado qaytadi: "G'uuu-luuu-uuu-uuu!!!" Ilkis cho'chib tushaman, ichim muzlabketadi. Saratonning issig'ida peshonamdan sovuqdan-sovuq ter quyiladi..."⁴.

Ushbu parchada keltirilgan olamning, borliqning kengligiga va unda inson bir mayda zarra kabi ekanligiga ishora etuvchi "...ufqlarga tutash kengliklar" yoki "...ichim to'la hayot, kuchim tanamga sig'maydi" singari insonning qudrati cheksiz ekanligini ifoda etishga xizmat qiluvchi jumlar alohida bayon etish uslubini yuzaga keltirganligini e'tirof etish joyiz. Yuqorida keltirilgan parchada o'ziga xos tarbiyaviy qilmomatga ega bo'lgan satrlar sifatida "...hayqiraman – "Uuu-luuu-uuug'!.." Sal o'tmay atrofdan aks-sado qaytadi: "G'uuu-luuu-uuu-uuu!!!..." o'rmini keltirish lozim. Bu o'rinda "ulug'" va "g'ulu" so'zlari o'zaro antiteza hosil qilgan. Bu ikki so'zning qarama-qarshi qo'yilishidan kibr-u havoga berilmaslik, o'zingni juda ham buyuk deb hisoblashing bu – juda katta mubolag'a ekanligi ta'kidlanmiqda.

Ushbu fikrimizni dalillash maqsadida "O'zbek tilining izohli lug'ati" da *ulug'* leksemasining izohiga yuzlanamiz. Unda *ulug'* so'zining yettita semantik qirrasini izohlangan bo'lib⁵, tom ma'nodagi *ulug'*lik haqida ikkinchi, uchinchi va beshinchi raqamlar ostidagi izohlar "Bir piyola suv" hikoyasidagi nazarda tutilgan ma'nolarga yaqin keladi. Unga ko'ra *ulug'* so'zidan: "kuch-qudrat, qadr-qimmat, imkoniyati jihatidan eng qudratli" ma'nosi anglashiladi. Bu esa yozuvchi tomonidan *g'ulu* ekanligi ta'kidlanadi.

Ushbu so'z adabiyotshunoslikka oid kitoblarda "o'ta bo'rttirish", "mubolag'aning yuqori darajasi" deya izohlanadi. Xususan, A.Hojjahmedovning

³ Caryl Emerson. Theory and history of literature (Tom 8), University of Minnesota Press, 1984.

⁴ Sharq yulduzi. Jurnal. 2011-yil, 2-son.

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. U harfi. A.Madvaliyev tahriri ostida. –Toshkent: O'zME nashriyoti, 2007. –B. 280.





“Mumtoz badiiyat malohati” kitobida *g'ulu* shunday ta'riflanadi: “...Mubolag'aning uchunchi darajasi g'uluvv deb ataladi. Aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lmaydigan tarzda tasvirlash shunday san'at hisoblanadi...⁶”.

Demak, *ulug'man* deb hisoblash juda ham *mubolag'ali* ekanligi yuqoridagi jumladan anglashilib turibdi. Bu holat o'quvchiga nisbatan ham yozuvchiga nisbatan ham qaratilgan deyish hech qanday xato bo'lib chiqmaydi. Bu yerda yana bir nozik ifoda mavjud. Ya'ni yozuvchining o'z ismi ham *Ulug'bek* ekanligi, uning ma'nosi ham buyuk va qobiliyatli degan semalarga egaligini nazarga olsak, shu o'rinda yozuvchining o'ziga nisbatan ham kamtarlik qilayotganligini sezish qiyinmas.

Bu kabi tasvirlash usuli mumtoz adabiyotimizning lirik janrlariga xos ko'proq xos bo'lib, she'riy asarlarning maqta' qismida ijodkor o'ziga nisbatan anchayin kamtarlik qilish o'rinlarini kuzatsa bo'ladi. Ayrim mumtoz ijodkorlar bunday kamtarlik, kamsuqumlikni taxalluslarining o'zidayoq ifodalab olishadi. Masalan, Noqis (qusurli, aybli), Mujrim (jurmlı, gunohli, gunohkor) kabi nomlarda shoirlar o'zlarini gunohlardan forig' emasliklariga ishora beradilar.

Xulosa qilib aytganda, *Ulug'bek Hamdam* ijodining nasriy yo'nalishida ham nazm ohanglari ufurib turadiki, bu zamonaviy o'zbek nasrida o'ziga xos yangi ifoda imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi shunhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyotimiz faxri. To'plab nashrga tayyorlovchilar: U.Normatov., B.Karim. –T.: O'zbekiston, 2007.
2. Caryl Emerson. Theory and history of literature (Tom 8), University of Minnesota Press, 1984.
3. Sharq yulduzi. Jurnal. 2011-yil, 2-son
4. Hojiahmedov A. mumtoz badiiyat malohati. –Toshkent: Sharq, 1999.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. U harfi. A.Madvaliyev tahriri ostida. –Toshkent: O'zME nashriyoti, 2007.

⁶ Hojiahmedov A. mumtoz badiiyat malohati. –Toshkent: Sharq, 1999. –B. 11.

